

Ona yurti - oltin beshigi

TONG yulduzi

№ 17
(66454)

2004 yil
26 aprel - 2 may

Gazeta 1929 yil
1 avgustdan chiqqan
boshlagan

O'zbekiston bolalari
va o'smirlarining gazetasi

Muassislar:

O'ZBEKISTON MATBUOT VA AXBOROT AGENTLIGI,
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI,
«KAMOLOT» YOSHLAR IJTIMOYIY HARAKATI.

HOKIMGGA RAHMAT

Kuni kecha tahririyatimizga Denov tumani hokimligidan maktub keldi. Ochiq'i, kelajagimiz egalari bo'lgan bolalarning ma'naviyatini shakllantirishga o'z hissasini qo'shayotgan bu insonlarning sa'y-harakatlari bizni albatta xursand qildi. Maktubda yozilishicha, Denov tumani ta'lim muassasalarining 753 nafar o'qituvchi va o'quvchilari

Xushxabar

2004 yil uchun «Tong yulduzi» gazetasiga obuna bo'lishibdi. Tabiiyki, 80 ming nafar bolajonlari bo'lgan Denov tumani uchun bu ko'rsatkich yetarli emas, albatta. Ammo «Harakatda-barakat» deganlaridek, farzandlarimizni komillikka yetaklayotgan tuman hokimi A.Eshmurodovga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Chunki hokim bobo ertangi kitobxonlarni tarbiyalayaptilar-da. Shuningdek, boshqa tumanlar hokimlaridan ham shunday mazmundagi xushxabarlarni kutib qolamiz.



«ZUMRAD» MI, «QIMMAT»?...

Yaqinda zangori ekran orqali Ra'no Solihova senariysi asosida, sahnalashtiruvchi rejessyor Melis Abzalov, operator Najim G'ulomovlarning «Zumrad va Qimmat» ertagining yangi talqinini miriqib tomosha qildim. Besh qismdan iborat bo'lgan film qiziqarli, kutilmagan voqea-hodisalarga boyligi bilan bizga juda yoqdi. Ayniqsa, Zumrad, uning ukasi, Dev obrazlari juda ta'sirchan yaratilgan. Melis Abzalov, Muborak Ashurboyevalar o'z obrazlarini maromiga yetkazib ijro etishgan. Qahramonlarning ichki kechinmalari oddiyligi, samimiyligi, biznikiga juda o'xshash ekan. Axir barchamiz ertak yakunida ezgulikning yovuzlik ustidan g'olib bo'lishini istaymiz-da. Men Zumradning xushmuomalaligi, mehnatsevarligini qadrlayman, o'zim ham unga o'xshashga intilaman. U o'z maqsadiga faqat halol mehnati orqaligina erishdi-da.

Istardikki, bizni ezgulikka, yaxshilikka chorlovchi bunday filmlar yanada ko'proq namoyish etilsa.

Mohinur HAYDAROVA,
Poytaxtimizning

Sobir Rahimov tumanidagi

165-maktabning 5-«G» sinf o'quvchisi.

MEHRIBONLAR

Bolalar va o'smirlar uyi qoshida 21 yo'nalishdagi to'garaklar faoliyat ko'rsatib, ularda 1050 nafar o'g'il-qiz bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazmoqdalar.

Yaqinda «Mehr va muruvvat yili» munosabati bilan 31 nafar mehrga muhtoj o'quvchilar uchun «Shodlik kechasi» uyushtirildi. Bayramona bezatilgan tantanalar zalini bolalarning shodon ovozlari, quvnoq kulgulari tutib ketdi.

Tadbirning bolalar yodida qolarli bo'lishi uchun Bag'dod mebel fabrikasi rahbari M. Dehqonov, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati TXTB boshlang'ich tashkiloti raisi P.Abdulqosimov, tuman hokimligi voyaga yetmagan yoshlar bilan ishlash komissiyasi kotibi B. Usmonov, tuman gazlashtirish muhandisi B. Teshaboyev, tuman Salomatlik markazi bosh shifokori Q. Abdusamatov, TXTB mudir o'rinbosari N. Parpiyevlar o'z himmatlarini ayamadilar. To'kin dasturxon tuzab, kichintoylarni qimmatbaho sovg'a-salomlar bilan siyladilar.

Murg'ak qalbli bolajonlar saxiy insonlar sahovatini sira unutmastiklari tayin.

Bir tumandan qo'sh maktub

SHIRIN SO'ZLI MADADKORLAR

Mana bir necha yildirki, 43 - maktab qoshida «Bolalar va o'smirlar uyi»ga qarashli bichish-tikish to'garagi faoliyat olib bormoqda. Nodiraxon Qo'shoqova ustozlik qilayotgan 30 nafar qizlar tikuvchilikning sir-asrorlarini o'rganish bilan birga mahallalaridagi yolg'iz, mehrga muhtoj kishilar holidan xabar olishdek savobli ishdan ham chetda qolmayptilar. Shu sababli ham Kenagas, Otxona, Qo'rg'oncha, Dasht qishloqlari keksalari to'garakning Muxlisa Jaloliddinova, Sadoqat Umarova, Dilorom Xidirova, Sevara Isoqova kabi a'zolarini «shirin so'zli madadkorlar» deb atashadi. Chaqqon qizlar Zulfiya momo, Xadicha momo, Halima momo, Mirza ota kabi nuroniylar xonadonlarida bo'lib, uy yumushlarini bajarishga baholi qudrat ko'maklashmoqdalar. E'tiborli tomoni shundaki, madadkorlar bu xayrli ishni mazkur yilimiz «Mehr va muruvvat yili» deb e'lon qilinmasidan ancha oldinroq boshlab yuborishgandi.

Vali AHMADJON,

Farg'ona viloyati, Bag'dod tumani, Konizar qishlog'i.

O'ZBEKISTONIM

Go'zal yurtlar ichra yakkam- yagonam,
Marvarid shodada mistli durdonam,
Ko'ngli bir halimu, lekin mardonam,
Fidoying bo'layin, O'zbekistonim!

Fubrog'ing zarligin boshqalar sezmas,
Begona yurtlarda bosganim izmas,
Quyosh oshiq kabi nigohin uzmas,
Fidoying bo'layin, O'zbekistonim!

Bag'rida daholar ulg'aygan yurtisan,
Xalqining dardidan to'lg'ongan yurtisan,
Boshida Humosi charx urgan yurtisan,
Fidoying bo'layin, O'zbekistonim!

Sha'ningga munosib bir farzand bo'lay,
Olaga eng aziz - qiz, dilband bo'lay,
Senga tig'likilsa, jonimni beray,
Kamoling bo'layin, O'zbekistonim!

Kamola ORIFJONOVA,

Usmon Nosir nomidagi

Toshkent matbaa-noshirlik kasb-hunar
kollejining 1 - kurs talabasi.

MUSIQA OLAMINING SHODLIKLARI



Bizning Glier nomli musiqa akademik litseyimizda puxta bilim olishimiz uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Turli musiqa asboblari kuylar ijro etib, ularga oid kitoblarni sevib mutolaa qilamiz. Jonkuyar ustozlarimizning qunt bilan

saboq berishi bizni hamisha izlanishga undaydi. Yoshligimdan pianino chalishga qiziqqanim bois, shu maskanga o'qishga kelganman. To'g'ri, boshida biroz qiyin bo'ldi, lekin keyinchalik o'rganib ketdim. Hozir bemalol kuylar ijro eta olaman. Ilm maskanimizda bastakorlar, taniqli xonandalar bilan uchrashuvlar, qiziqarli tadbirlar muntazam o'tkazilib boriladi. Ushbu kechalarda biz o'zimiz kuy-qo'shiqlar ijro etamiz. Ayniqsa, sinfimizning o'zida o'tkazilayotgan kichik konsertlarni barchamiz orziqib kutamiz. Chunki uning ijrochilari ham, tomoshabini ham, tanqidchisi-yu maqtovchisi ham o'zimiz bo'lamiz. Musiqa olamida beg'araz bellashamiz. Shunday ta'lim maskanida tahsil olayotganimdan qalbim faxr-iftixorga to'ladi.

Nazokat HAKIMOVA,
6-sinf o'quvchisi.



ONAMGA QASIDA

Jahonda nimaiki oq bo'lsa, uni ona sutiga, nimaiki qaynoq bo'lsa, uni ona mehriq nisbat qilinadi.

Mening mehribon Onajonim, bu qiyoslar Sizga ham tegishli. Lekin baribir bu so'zlar ham mehringizni ta'riflashga ozlik qilayotgandek tuyulaveradi. Shunda uni Quyoshga qiyoslayman. Chunki dunyoda undan-da saxiyroq, taftidan-da iliqroq, yoqimliroq narsa yo'q. Demak, men qo'shaloq quyoshning zarrin nurlaridan bahra olib o'sayotgan navniholman...

Avvallari hech e'tibor bermagan ekanman, mehr to'la yuzingizga biroz ajin tushibdi, tim qora sochlaringizga oq oralabdi. Ammo siz ranjimang, shular ham sizga juda yarashib turibdi. Ular nurli chehrangizni yanada ko'rkamroq qilib qo'yadi. Boshqalarga qanday bilmadim-u, 50 bahorni qarshilagan bo'lsangiz ham mening ko'zimga hamisha yosh, navqiron va go'zal bo'lib ko'rinaverasiz.

Sizga tan-sihatlik, omonlik tilab qoluvchi qizingiz

NIGORA.

Kitob javoningizga

VANA BIR YANGI KITOB

Sodiq do'stimiz «Tong yulduzi»! Senga butun sinfimiz o'quvchilari bilan birgalikda maktub yozayotganimizdan juda xursandmiz. Har bir soningni mushuqlik bilan kutib, bir-biriga o'xshamaydigan rang-barang sahifalaringni o'qishni juda yaxshi ko'ramiz. Yaqinda sevimli shoirimiz Po'lat Mo'minning «Qushlar, qushlar, ko'ngil xushlar» nomli she'riy kitobini sahifalaringda chop etib, quvonchimizga yana bir quvonch qo'shding. Ushbu she'rlarni kitobcha holiga keltirib, har birimiz kitob javonimizda saqlash uchun olib qo'ydik. Buning uchun senga rahmatlar aytamiz. Yangi sonlaring bundan-da qiziqarliroq bo'lishini chin dildan istab qoluvchi:

Qashqadaryo viloyati,
G'uzor tumanidagi Muqimiy nomli 31-o'rta
maktabning 6-«B» sinf o'quvchilari.

SHOIR OG'AMIZ

Sizni she'rlaringiz,
Yurakda qoldi.
Tuganmas mehringiz,
Satrlar oldi.

Tug'ilgay tilaklar,
Yodingiz bilan.
Unutmas she'riyat,
Qo'shiq va o'lan.

Sherzod SULTONOV,
Farg'ona viloyati, Oltiariq tumanidagi
5-maktabning 9-«V» sinf o'quvchisi.

AJDODLAR RUHI MANGU BARHAYOT!

Ozodlik, erkinlik, istiqloq so'zlari bir qarashda oddiygina bo'lsa-da, aslida ular inson qalbini, vujudini zavqu shavqqa oshno etadi, faxrga to'ldiradi. Mustaqillik shabadasi esa boshlaganiga ham hademay o'n uch yil to'ladi. Bu bayramni barcha birdek xursandchilik bilan qarshi oladi. Zero, istiqloqqa biz osonlikcha erishmaganimiz tarixdan ma'lum. Qanchadan-qancha qonli to'qnashuvlar, erk va ozodlik yo'lidagi kurashlar natijasiz ketganini yaxshi bilasiz. Yillar o'tib ajdodlarimiz orzu qilgan istiqloqqa biz erishdik. To'g'ri, tarixda biror xalq, biror mamlakat o'z mustaqilligiga osonlik bilan erishmagan. To'maris, Shiroq, Spitamen, Najmiddin Kubro, Temur Malik, Jaloliddin Manguberdi, Mahmud Torobiy kabi ajdodlarimizning buyuk xizmatlarini yodimizdan chiqarmaymiz. Ushbu vatandoshlarimiz yashab o'tgan davrda Turon, Turkiston va Movarounnahrda madaniyat gullab yashnadi. Qudratli davlat mavjud bo'ldi.

Istiqloq uchun kurashgan, uning baxti, farovon hayoti uchun shahid ketganlar, ularning nomlari tildan-tilga, dildan-dilga o'tib tarix zarvaralarida, avlodlar xotirasida mangu qolajak. Ularni unutishga aslo haqqimiz yo'q.

Durdona TO'YCHIYEVA,
Sobir Rahimov nomli akademik litseyining
107-guruh o'quvchisi.

Hali ulg'aymasdanoq mehnat qilishga intilayotgan bolalarni hech kuzatganmisiz? Buzilgan o'yinchoq mashinani tuzatayotgan bolakayga, qo'g'irchog'iga ko'ylakcha tikishga harakat qilayotgan qizaloqqa bir qarang-a! Qiziqishlari bir olam. Ular o'z kelajagini allaqachon belgilab olishgan. Puxta bilim olishlari, turli kasb egasi bo'lishlari uchun zarur tadbirlar belgilab qo'yilgan.

KELAJAK QANOTLARI

Maktab partasidanoq, boshlanadigan nurli yo'llar ularni, dovonlar sari chorlaydi. Olgan bilimlarini, iqtidorini sarhisob qiladigan KELAJAK degan oliy hakam kutmoqda ularni.

Dilbar AZIMOVA,
Toshkent shahar,
Shayxontohur tumanidagi 316-maktabning
6-«A» sinf o'quvchisi.

MUHAMMAD YUSUFNI XOTIRLAB...

Andijon huvullab qolibdi sizsiz,
Huvullab qolibdi dala-yeringiz.
Lek mangu yashaydi hech shak-shubhasiz,
Dilingiz navosi - sizning she'ringiz.

She'riy kitobingiz qo'limga olsam,
Go'yo ajib olamga kirib ketardim.
Qaniydi, siz kabi she'r yoza olsam,
Eng avvalo siz uchun she'rlar bitardim.

Sitora RIZOQULOVA,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar, Beruniy nomli
2 - maktabning 9 - «A» sinf o'quvchisi.

OLFIN SANALAR

Haftaning oltin kunlari

26 aprel

- «Amir Temur» ordeni ta'sis etildi (1996 yil).
- Tanzaniya Birlashgan Respublikasi milliy bayrami - Ittifoq kuni (1964 yil).
- «Shanxay beshligi» tashkil topdi (1996 yil).

27 aprel

- Janubiy Afrika Respublikasi milliy bayrami - Respublika kuni (1995 yil).

29 aprel

- «O'zbekkino» davlat hissadorlik kompaniyasi tuzildi (1996 yil).
- Xalqaro raqs kuni (1982 yil).

30 aprel



- Shvetsiya Qirolligi milliy bayrami - Qirol tug'ilgan kun (1946 yil).
- Niderlandiya Qirolligi milliy bayrami - Qirolcha kuni (1949 yil).

1 may

- Toshkentda Kurash bo'yicha birinchi jahon chempionati ochildi (1999 yil).
- «O'zbekiston Respublikasi xalq ustasi» unvoni ta'sis etildi (1998 yil).
- O'zbekiston Respublikasi Milliy xavfsizlik kengashi tashkil qilindi (1995 yil).

2 may


- O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi tashkil etildi (1996 yil).



SULOLANING KENJA POLVONI

Sog' yurak-sog' yurak
1986 yilda tug'ilgan Go'zal Umarova Namangan shahrida yashaydi. U tabiatan tirishqoq va izlanuvchan qiz. Shuningdek, sinfdoshlari orasida eng a'lochisi hamdir. Tengdoshlaridan ajralib turadigan yana bir hislati karatechi sifatida ham mashhurdir. Uning karatega qiziqishi ham juda qiziq voqeadan boshlangan: Bir kuni maktabdan uyiga yig'lab kelgan. O'shanda o'zini- o'zi himoya qila olmaganligidan rosa xafa bo'lgan ekan. 6- sinfni tugatgan Go'zal 7-sinfga o'tar chog'ida ota-onasiga sportga qatnashish istagi borligini bildirdi. Bu fikrni qo'llab-quvvatlagan onasi uni Namangan shahridagi «Pahlavon yoshlar sport majmuasi»ga boshlab keladi. Ularni iliq kutib olgan murabbiy Nabijon aka shu kungacha Go'zalga ustozlik qilmoqdalar. Mana besh yildirki, Go'zal karate bilan muntazam shug'ullanib kelyapti. 2002 yilda O'zbekiston kubogida qatnashib, faxrli 3-o'rinni, 2003 yili bir qator musobaqalarda 1-o'rinni egalladi. U hozirda qizil belbog' sohibasi. Go'zalga chindan-da havas qilsa arziydi. Sportdan tashqari til o'rganishga ham juda qiziqadi. Maqsadi - kunchiqar yurt Yaponiyaga borish. Dunyo


Kurash xalqimizning azaliy qadriyatlaridan biri, viloyatining Parkent tumanida ham sportning bu turini maskanda yashashadi. Sulolaning kenjasi bobolari izidan borib, sportning belbog'li yildirki, kurash bilan jiddiy shug'ullanib ustasi, «Universiada-2002» sohibi Umar Mahamatov murabbiylik yetish yo'lida astoydil izlanayotgan viloyat chempioni bo'ldi. 2002 mamlakat birinchiligida «Jar» sport majmuidagi «Mahallamiz polvonlari» bronza va 2003- yildagi nihollari»



musobaqasining bronza medali sovrindori bo'ldi. Birdan-bir niyati terma jamoa safidan munosib o'rin olish. Polvon ota-bobolari izidan borib, o'zbekning kurashi dovrug'ini olamga yoyishga intilayotgan Nuriddinjonga biz ham omadlar tilaymiz.

Normurod TOIROV,
Toshkent viloyati, Parkent tumanidagi 34- umumiy o'rta ta'lim maktabining 9 - «V» sinf o'quvchisi.

GO'ZAL YAPONIYAGA BORMOQCHI



keuzishni aynan Yaponiyadan boshlashni orzu qilgan tengdoshimizga omad tilab qolamiz.
Oydin ESONALIYEVA,
Namangan shahar, tillarni chuqurlashtirib o'qitishga ixtisoslashtirilgan maktab- internatining 11- sinf o'quvchisi.

«RING QIROLI» BO'LAMAN

Bugungi kunda sportning biron bir turi bilan qiziqmayotgan bolani topish qiyin. Sinfimizdagi o'rtoqlarimning barchasi sportga oshnodirlar. Nodir to'p tepishga ishqiboz, Qobil shaxmatchi, Nargiza tennisini qoyil qilib o'ynasa, qolganlari karatega borishadi. Sinfimizni yosh sportchilar sinfi deyishlari ham bejiz emas.



Men sportning boks yaxshi ko'raman. Ikki buyon murabbiyim Yo'ldoshev boksdan saboq Sportni sevgan vaqti sira bo'lmas mashg'ulotlardan bokschilar haqidagi o'qiyapman. Men Mayk Tayson, Muhammadqodir Abdullayev, Artur Grigoryan singari «Ring qirollari»dek bo'lishni orzu qilaman.

Asadullo IBODULLAYEV,
Qashqadaryo viloyati, Qarshi shahridagi 20- maktabning 7-sinf o'quvchisi.

Aziz bolajonlar, sport ishqibozlari orasida eng ommalashgan sport turlaridan biri bo'lmish voleybolning Vatani qayerligini bilasizmi? Uning Vatani - Amerika Qo'shma Shtatlari ekan. Bu o'yin 1895 yilda Xoliok shahrida (Massachusette shtati) yashovchi Yosh xristianlar uyushmasida jismoniy tarbiya rahbari Vilyam Morgan tomonidan kashf etilgan. U dastlab koptokni 2 metr balandlikda tortilgan to'rdan oshirib olishni o'rgandi va bu usulni ustozlariga ko'rsatdi. Bu yangi o'yinga «voleybol» (uchayotgan koptok) deb nom berishdi. Voleybol o'yini ilk bor 1896 yilda omma oldida namoyish etildi. Tomoshabinlar uni zo'r qiziqish bilan kutib oldilar. Bir yildan so'ng, AQShda voleybol o'yinining 10 qoidasi e'lon qilindi.


Bilasizmi?

VOLEYBOLNING VATANI QAYER?

Oradan yillar o'tib, voleybol Kanada, Kuba, Puerto- Riko, Peru, Braziliya, Urugvay va Meksikaga ham tarqaldi. Keyinchalik Fransiyada ham keng ommalashib ketgan voleybol bu xalqning ham eng sevimli sport turiga aylandi. Shuningdek, uning o'yin qoidalari ham takomillashib, qo'llash usullari o'zgara bordi. Voleybol o'yini yildan- yilga takomillashib, baland bo'yli, zarba bilan uradiganlar o'yini bo'lib kelmoqda. U bir qarashda juda sodda va yengil o'yinga o'xshaydi, ammo aslida juda murakkab va nozik o'yin hisoblanadi. Mutaxassislar fikricha, musobaqalarda muvaffaqiyatga erishish uchun sportchilar yuqori malakali bo'libgina qolmay, balki bir- birlarini juda yaxshi tushinishlari kerak ekan.

Zilola MALLAYEVA,
Farg'ona viloyati, Uchko'prik tumanidagi 9-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi.

SPORT BILAN INGOLASHSANG, TAN O'GRIG'I KO'RMAYSAN



deya nasihat qiladilar bizga doim.

Endilikda salkam 40 yildan buyon mana shu maskanda mehnat qilib kelayotgan Muattar opa Vakilova maktabimizga rahbarlik qilyaptilar. Uning tashabbusi bilan talaygina ibratli

mahallam» musobaqasida qatnashgan o'g'il-qizlarimiz 4 ta oltin, 5 ta kumush va 7 ta bronza medallar shodasini qo'lga kiritib qaytdilar. Chevar qizlarimizning ishlari ham talaygina ko'rgazmalarda muvaffaqiyatli namoyish etildi.

Yaqinda 7-11- sinf qizlari o'rtasida yana bir yangi klub - «O'smir qizlar» klubi tashkil qilindi. Uning mashg'ulotlari juda qiziqarli o'tyapti. Qizlar har mashg'ulotda biror mavzu tanlab, bahs va munozaraga kirishadilar. Qiz bolaning odob-ahloqi, yurish-turishi, kiyinishi, muomala madaniyati haqida

ZEHNLARI ALISHERBEKDEK

Ustoz! Ularning ta'rifiga so'z o'z. Muallimlar haqida eldan o'tkazib bir so'z aytishim gumon. Shunday bo'lsa-da, o'g'lim Muhammadjonning birinchi ustozlari - o'z kasbining bilimdoni, o'quvchilar mehriboni, o'qitishda o'ta talabchan, kechirimlilikda ko'ngilchan, bolalarga bag'ri keng, e'zozda volidalarga teng Zulayho opa Ostonovalar haqida qalam tebratishga chog'landim.

O'g'ilchamni ilk bor Samarqand shahri, Temir yo'l tumanidagi 64 - o'rta maktabga yetaklab olib borgan kunim hamon yodimda. Zulayho opaning 35 nafar o'quvchi qabul qilinadigan sinfida o'qish uchun 100 dan ortiq talabgorlar bor. Omadli ota-onalar qatorida men

MAKTABIM - SENI MAQTAGUM

Mingdan ziyod o'quvchiga ta'lim-tarbiya, ziyo ulashib kelayotgan qadrdon maktabimizni har qancha maqtasak arziydi. Shunday ajoyib bilim maskani o'quvchisi bo'lganimiz uchun ko'pgina tengdoshlarimizning bizga havas qilishlari ham bejiz emas. Nimaga deysizmi? Keling, yaxshisi maktabim haqida batafsilroq so'zlab beray:

-Aslida maktabimiz 1925-27 yillarda hashar yo'li bilan barpo etilgan ekan. O'sha suronli urush yillarida ham maktabimizda darslar to'xtatilmagan ekan. Bu haqda bizga o'sha yillarda shu muqaddas dargohda bolalarga saboq bergan, hozirgi kunda ham hormaytolmay biz yoshlarga bilim berib kelayotgan ustozlarimizning o'zlari so'zlab berishadi. Ularning aytishlaricha, o'quvchilari och-nahor, yupun bo'lsalar-da, bilimga chanqoq bo'lishgan ekan. «Hozirgi kunda sizlar uchun yaratilayotgan shart-sharoitlar, imkoniyatlarga havas qilsa arziydi. Shunday ekan, bu kunlarning qadriga yetinglar, yoshlikning har damini g'animat bilib, o'qib-o'rganinglar»,



ishlar amalga oshirilyapti. Barcha fanlardan qo'shimcha darslar o'tiladi. Tikuvchilik, to'quvchilik, zardo'zlik to'garaklari qizlar bilan doimo gavjum bo'lsa, futbol, karate, kurash to'garaklarida sport ishqibozlari bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazadilar. Sport musobaqalarini muntazam o'tkazib turish ham an'anaga aylanib qolgan. Umidli sportchilarimiz talaygina yutuqlarni qo'lga kiritishga ham ulgurishgan. Respublika miqyosida belbog'li kurash bo'yicha o'tkazilgan «Mening

fikrlashadilar. Bir-birlaridan pazandalik, qandolatchilik sirlarini o'rganishadi, o'rgatishadi.

Bu ishlarning bariga bosh-qosh bo'layotgan Muattar opaning yana bir ibratli jihatlarini aytib o'tmoqchiydim. Muattar opa har kuni barcha sinflarga birma-bir kirib, davomatni tekshiradilar. Qaysi sinfda nechta o'quvchi o'qishini, har birining ismi-sharifini juda yaxshi biladilar. Biz opa bilan xuddi o'z do'stimiz, sirdoshimizdek gaplashamiz. Chunki ular xuddi onamizdek mehribonlar. Har birimizning qalbimizga yo'l topa oladilar. Yumushlari, tashvishlari mo'l bo'lsa-da, biz uchun doimo fursat topadilar. Muammolarimizni bir zumda hal qilib, o'rinli maslahatlarini ayamaydilar.

Men shunday ajoyib bilim maskanida mehribon, muallimlar qo'lida saboq olayotganimdan faxrlanaman. Shuning uchun ham maktabimni doimo maqtab yuraman.

Iroda SHARIPOVA,
Toshkentdagi 271 - maktabning
II - «A» sinf o'quvchisi.



ham bor ekanman, farzandim Zulayho opaning sinfiga tushdi...

Shu kunlarda bu sinf o'quvchilarini bir ko'rsangiz edi. Biri-biridan biyron, ziyrak, husnixati Behzodona, o'qishi Bedilona, zehnlari Alisherbekdek.

Qaniydi, oramizda Nodirabegimu Zulfiyalarning avlodi bo'lmish Zulayhobegimdek fidoiy insonlar ko'p bo'lsa.


Faxriddin SHODIYEV,
SamDD tadqiqotchisi.

Bir kuni oyim yong'oqzordan o'tayotganlarida yong'oq daraxtining ustida bir odam o'tirganini ko'rib qolibdilar. U ko'zlarini katta-katta ochib, oyimdan nigohini uzmasmish. Oyim hali g'o'r yong'oqning ustiga chiqib olgan odamni ko'rib, hayron bo'libdilar. Haligi odam hadeb tikilavergach, unga salom beribdilar. U esa indamay iljayib

YONG'OQZORDAGI ODAM

turganmish... Keyin nima bo'lganini oyim eslolmabdilar. Ko'zlarini ochsalar, tepalarida buvim yig'lab o'tirganmishlar. Oyim «Menga nima bo'ldi?» deb so'ramoqchi bo'lsa, tillari aylanmay, g'o'drangan ovoz kelibdi. Buni eshitgan buvim yanada hayajonlanib, yig'lashga tushibdilar. Oradan oylar o'tib, oyijonim ancha yaxshi bo'libdilar. Lekin gapirganlarida tutilib gapiradigan bo'lib qolibdilar. Keyinchalik bu ham o'tib ketibdi. Hozir oyim bu voqeani goh xo'rsinib, goh kulib gapirib yuradilar.

Gulmira MUHIDDINOVA,
Jizzax viloyati, Baxmal tumani.



Kunlardan bir kun

eshitib ulg'ayganmiz. Ularni bizga buvam aytib

OLTIN OLMA, DUO OL...


berardilar. Bir kuni ular aytib bergan hikoyalari bizni hayratga solgan. U vaqtlarda buvam navqiron yoshda bo'lib, bozorda hammolchilik qilib kun ko'rgan ekanlar. Bir kuni buvamning hecham ishlari yurishmabdi. Kech tushib borayotganmish, lekin buvam hali bir chaqa ham ishlamagan ekanlar. Jig'ibiyron bo'lib, endi uyga qaytaman deb turgan paytlarida bir oppoq kiyingan nuroniy chol kelib, yuklarini katta yo'lgacha olib borib berishini iltimos qilibdi. Buvam jon-jon deb rozi bo'libdilar va cholning yuklarini ko'tarib, aravaga ortishga yordamlashib yuboribdilar. Chol yonida puli yo'qligini aytib, buvamdan uzr so'rabdi. Buvamning biroz jahllari chiqibdi, lekin cholning yuziga qarab, jahldan tushibdilar. Shunda chol: «Kel, seni duo qilay. Sen nimani xohlarding?» deb so'rabdi. Buvam, umrim

Zubayda UZOQOVA,
Toshkent viloyati, Yuqori Chirchiq tumani.

uzoq bo'lishini xohlayman, debdilar. Chol duo qilib, ko'zdan g'oyib bo'libdi... Shu voqeadan keyin buvamning ishlari juda yurishib ketibdi. Kuniga

o'nlab odamning hojatini chiqarsalar ham, sira charchamas ekanlar.

Xullas, hamollikning orqasidan ancha-muncha tirikchiliklari yaxshilanib qolibdi. Buvam bizni o'tgan yili 106 y o s h g a to'lganlarida tashlab ketdilar. Umlari davomida hech kimni xafa qilmaganliklarini, o'sha cholning duosi ijobat bo'lganini ko'p marta takrorlardilar.



- Xurshidaxon, o'qishlaringiz a'lo, o'zingiz sinf sardori bo'lsangiz kerak-a?



-Barcha fanlarni a'lo va yaxshi baholarga o'zlashtiraman. Ayniqsa, tarix, adabiyot, matematika fanlari jonu dilim. Lekin sardor emasman. Sardor bo'lish uchun faqat o'zlashtirishning o'zi kamlik qilarkan. Kishidan kuchli qobiliyat, tezkorlik, eng muhimi o'zingga yuklatilgan vazifaga ishtiyoqing bo'lishi lozim.

Sinfimizda o'z kutubxonamiz bo'lib, unda ko'plab badiiy kitoblar

Kutubxonamizni yangi yangi kitoblar bilan boyitishga intilaman. Sinf rahbarimiz Mehrijon opa Rajabova ham bu ishda bizlarga doimo bosh-qosh. Bayramlarga bag'ishlab turli mavzularda «devoriy gazetalar» chiqaramiz. Unga o'zimiz maqola va xabarlar yozamiz. Yaqinda Alisher Navoiy, Bobur, Amir Temur bobomizning tavallud kunlariga «Devoriy gazeta»lar chiqardik. Ularni barcha o'quvchilar qiziqish bilan o'qishdi.

-She'rlar, ham yozib turasizmi?

«Buvijonim oppoq harir ro'mollarini boshlariga o'rab olgach, qo'llariga temir taroqlarini olib, gilam to'qishni boshlaydilar. Mayin ovozda qo'shiq xirgoyi qilganicha, turli rangdagi jun iplardan nafis gullar jilosini yaratishga kirishadilar. Qo'shrabod tumanida «mana-man» degan gilamdo'zlar ularning maslahatiga quloq tutadilar. Men ularning harakatlarini kuzatib, hayratga tushaman. Mening ismimni ham Omongul buvijonim qo'ygan ekanlar. Hatto kelajagimni bashorat qilib, ulg'ayganida nabiram albatta shifokor bo'ladi, deya niyat qilibdilar», deb hikoya qiladi tengdoshingiz Chirchiq shahridagi 7-o'rta maktabning 6-sinf o'quvchisi Xurshida ABDEVASIYEVA.

UKAMGA HAVASIM KELADI

saqlanadi. Kitob o'qishni juda sevganim bois sardorlikdan ko'ra kutubxonachilik qilishni afzal bildim. Barcha sinfdoshlarimni kutubxonamizga a'zo qilganman, ularga kitoblar tarqataman.



-She'r yozishni yaxshi ko'raman. Yozgan she'rlarimni adabiyot o'qituvchimiz Dilrom opa ko'rib, maslahatlar beradilar.

Birinchi she'rim bog'bonlar haqida edi, u shunday boshlanadi:

*Bahor kelishi bilan, rizq yaratar bog'bonlar,
Qo'liga ketmon olib, dong taratar bog'bonlar.*

To'g'ri, hali yozgan she'rlarim unchalik kuchli emas. Lekin yaxshi yozishga harakat qilayapman. Onajonim-Salima opa tarix o'qituvchisi, dadajonim Kamoliddin aka Metropolitenda ishlaydilar. Ular she'rlar yozayotganimdan quvonib, ko'proq yozishga da'vat etadilar. Mana, sevimli gazetam «Tong yulduzi» tahririyatiga ham dadamning o'zlari olib keldilar. Endi gazeta qoshidagi «Istiqlol umidlari» to'garagiga qatnayman.

-Ukangiz bilan bir sinfda

o'qirkansiz. Uning bilimi sizdan ko'ra kuchliroq ekanligi og'ir botmaydimi?

-Keldiyorjon ukam men bilan bir sinfda o'qiydi. Uning bilimi juda kuchli, shu sababli bir sinf yuqoriga sakragan. Sinfimiz matematigi desam, mubolag'a qilayapti demang. To'g'risi, ukamning mendan o'zib ketishi boshida biroz og'ir botdi, keyinchalik unga havasim kela boshladi.

-Dutor chalishni ham bilarkansiz...

-Shahrimizdagi 9-sonli musiqa maktabining 3-sinfida tahsil olayapman. Haftasiga ikki marta mashg'ulotlarga qatnayman. Dutor chalishni ancha o'rganib oldim. Ustozlarimiz musiqa sirlarini bizga chin dildan o'rgatishadi. Kuy chalayotganimda qalbimni hayajon egallaydi, qulog'imga xuddi onajonimning ukamga aytayotgan allasi eshitilgandek bo'laveradi.

-Ham maktabda, ham musiqa maktabida tahsil olish, uy yumushlari, barchasiga ulgurish oson bo'lmasa kerak-a?

-To'g'ri, bo'sh vaqtim juda kam. Lekin eplashga harakat qilaman. Qiyinchiliklarga unchayam parvo qilmayman. Sababi, bajarayotgan ishlarim o'zimga juda yoqadi. Qiziqarli kitobni o'qimay, qalbing hayajonini she'rlarga solmay, dutorda rohatlanib kuy chalmay bo'larkanmi?! Uy yumushlari borasida qiz bola onasining eng yaqin yordamchisi bo'lishi lozim, deb o'ylayman.

-Kelajakda kim bo'lmoqchisiz?

-Albatta buvijonim orzu qilganidek shifokor bo'laman. Axir «Orzuga ayb yo'q», deyishadi-ku...

Qalbida olam-olam orzular kurtak otayotgan bu tengdoshingizga niyatlaring ijobat bo'lsin degimiz keldi.

Maftuna ABDURASHID qizi suhbatlashdi.

Bog'chada o'ynayotgan qizaloqlarni bir kishi gapga solibdi:

-Ona qizlarim, qanday o'yin o'ynayapsizlar?

-Bog'cha opamiz Xojar xola qo'g'irchoq va kitoblarimizni qulf-kalitda saqlaydilar,-dedi ulardan biri.

-Shu sababli biz besh tosh o'ynayapmiz.

Haligi odam biroz ranjibdi va qizchalarga tasalli beribdi:

-Xafa bo'lmanglar, yaqinda Navro'z keladi. Undan nimani so'rasangiz, hammasi muhayyo bo'ladi. Qo'g'irchoq deysizmi, kitoblar deysizmi...

-Navro'z qachon keladi, biz uni taniymizmi?-so'rashibdi qizchalar.

-Albatta taniysiz. Quyosh jamolini ko'rsatib, tog'lar bag'rida qorlar eriy boshlaganida, iliq shabada esib, tog' bag'rida boychechak chiroy ochganida, doshqozonlarda sumalak, halim qaynaganida uning kelgani ma'lum bo'ladi.

Bu gaplarni eshitib, shahlo ko'zli qizaloq ko'zlarini yumib otasini eslay boshlabdi.

Qizchalardan biri ko'zlarini yumib, tezroq boychechakni ko'rgim, Navro'zni qarshi olgim kelayapti, dedi. Ular Navro'zdan tilak so'raydigan qizlarning ro'yxatini tuzib chiqishibdi:

Husnida bonu, Yulduzxon bonu, Sevaraoy,

Irodaoy, Dilromoy, Maftunaoy, Anoraoy, Xolidaoy, Mohigul, Zebiniso, Mehriniso, Komila, Sayyora...

Kunlar ilib, qushlarning chug'ur-chug'uri avjga chiqibdi. Qizaloqlar tog' bag'riga boychechak tergani borishibdi. Yo'l yurishibdi, yo'l yursa ham mo'l yurishibdi. To'satdan ob-havo o'zgarib, osmonni qora bulut qoplab, sovuq shamol esa boshlabdi. Qizaloqlar o'z ahdlarida qat'iy turib, yo'llarida davom etishibdi. Kech kirib, oy chiqibdi. Uning nurlarida qirlar xuddi

kunduzgidek ko'zga yaqqol ko'rinar, tog' esa juda olisda emish. Qirning yuqori qismida bir kulba ko'rinibdi. Ular xursand bo'lib, kulbaga kirishibdi. U yerda hech zog' yo'q emish. Hammayoq saranjom-sarishta qilib supurilgan. Horib-charchagan qizaloqlar uyquga ketishibdi. Tong chog'i yana o'z yo'llariga ravona bo'lishibdi. Baland ovozda qo'shiq kuylab ketayotgan qizlarga tog' ham ular tomonga yurib kelayotgandek tuyulaveribdi. Tush paytida ko'zlangan manzilga yetib kelishibdi. Tog' yon bag'rida qiyg'os ochilib turgan boychechaklarni ko'rib, quvonganlaridan yig'lab yuborishibdi. Ammo ularning quvonchi uzoqqa cho'zilmabdi. Ro'paralaridagi katta bir qoya tosh ustiga bahaybat qush kelib qo'nibdi. Bu qushlar - shohi burgut ekan. Uning quyoshda oltindek tovlanayotgan


tumshug'ini, chaq nab turgan ko'zlarini, o'tkir tirnoqli panjalarini ko'rib, qizaloqlar sarosimaga tushib qolishibdi.

Shunda burgut tilga kiribdi. Xuddi keksa odamdek og'ir-bosiqlik bilan so'zlay boshlabdi:

-Men sizlarni anchadan buyon kuzatib kelyapman. Sizni maqsad sari intilishingiz, shijoatingiz, qat'iyatingiz va jasurligingiz meni g'ayratli yoshlik chog'larimni eslatib yubordi va sizga bo'lgan mehrim ming chandon oshdi. Jasur qizlar ekansizlar...

So'ngra, quchoq-quchoq boychechak terib olgan qizaloqlarni qanotlari ustiga o'tkazib, uylariga eson-omon eltib qo'yibdi.

Erkin XOJIYEV.



BOYCHECHAK

Maktabga borar yo'limda ko'pincha nogironlar aravachasida o'tirgan o'g'li bilan soy bo'ylab sayr qilib yurgan bir ayolga duch kelaman. Uning yuzlari so'lg'in, ko'zlari g'amgin bo'lsa-da, nogiron farzandiga nisbatan qalbidā bitmas-tuganmas mehr borligi sezilib turadi. Bunday jo'shqin mehr faqat onalardagina mujassam deb yurardim.

emas, o'rtoqlarim haqida ham yozgin,-dedi qizcha.-Yur, men seni ular bilan tanishtirib qo'yaman...

«Mehribonlik uyi» bolalarining odob-ahloqi haqida har xil gaplar eshitganim bois, biroz ikkilanib turdim. Xavotirimni sezgan Sevara:

-Yuraver, qo'rqma, ular ham sen-u

«Baxt-iqbol huquqiga egaman...» tanloviga

tantanalarni-ku, aytmasak ham bo'ladi. Sahovatli kishilar sovg'a-salomlarga «ko'mib» tashlashadi... Xullas, hamma narsa yetarli. Faqat ota-ona mehri yetishmaydi-da...

-Men katta bo'lsam, bor mehrimni bolalarimga beraman,-deya

KO'ZLARIDA MUNG KO'RDIM...



Ammo bir voqea sabab bo'lib, onalarning orasida ham olalari borligiga guvoh bo'ldim. Keling, yaxshisi bir boshdan so'zlab bera qolay....

Bir kuni qoshnimaktabda o'qiydigan bir qiz bilan

tanishib qoldim. Ismi Sevara ekan. Uning ko'zlaridagi mungni ko'rib, suhbatga tortdim.

-Onaning o'rnini hech kim bosolmas ekan-da, - deya so'z boshladi u.- Onam uch yil avval qazo qilganlar. Dadam xudoning bergan kuni ichib kelar, onamni ayovsiz kaltaklardilar. Onam andishaga borib, bu haqda hech kimga aytmasdilar. Bora-bora ularning sog'liklari yomonlashaverdi. Ammo oyim, «o'tib ketar», deya shifokorlarga ham bormadilar. Bir kuni onamning ahvoli og'irlashib qoldi. Qo'lida bir shisha aroq bilan kirib kelgan dadam, men seni davolayman, deya qon qusayotgan onamga majburlab aroq ichirdi. Holsizlangan onam nursiz ko'zlarini bizga tikib, sekingina jon berdi. Lablarida qotib qolgan qon izlarini, ochiq qolgan ko'zlarini hecham unutilmasam kerak...

Ukam ikkimiz aroqxo'r dadam bilan qoldik. U bizni maktabga ham yubormay qo'ydi. Men o'qishimni davom ettirish maqsadida bolalar uyiga ketib qoldim. Ukam esa dadam bilan qoldi. Bolalar uyida chiroyli ko'ylaklar kiyib, maktabga borayotganimda, miriqib ovqatlanayotganimda beixtiyor ukamni eslayman. Chunki u bunday baxtdan mahrum...

Men ko'zlari jiqqa yoshga to'lgan Sevarani ovutish uchun so'z topolmay garang turardim.

-Buni qara-ya, men bunday voqealar faqat kinolardagina bo'ladi, deb o'ylandim. Maylimi, sen haqingda hikoya yozsam,-dedim hayajonimni yashirolmay.

-Yozsang, faqat men haqimda

menga o'xshagan bolalar,-dedi.

Men uning so'zlaridan biroz dadillanib, ortidan ergashdim.

-Avvallari men ham shunday o'ylandim. Keyin bilsam, ular ham xuddi bizdek bolalar ekan. Taqdirning turli zarbalariga uchragani bois, ularning ko'ngli o'ksik. Buni yaxshi his qilgan tarbiyachilarimiz Munira opa, Feruza opa, Zahro opa, hamshiramiz Shahlo opalar bizning ko'nglimizni ko'tarishga harakat qilishadi, xuddi onamizdek e'zozlashadi,-deya gapirib bordi suhbatdoshim yo'l-yo'lakay. Men u yerda Dinara, Malika, Seryoja, Farangiz, Asomiddin, Jenya, Lena, Shahnozalar bilan tanishdim.

-Biz yolg'iz emasmiz, xuddi ota-onamizdek mehribon tarbiyachilarimiz, enagalarimiz bor,-deyishdi ular.- Shart-sharoitlarimiz ham yetarli. Darsxonamiz, shinamgina yotoqxonamiz, oshxona, dam olish, yuvinish xonalarimiz bor. Shu kunlarda yangi kelgan rahbarimiz Elmira opaning sa'y-harakatlari bilan uyimizni ta'mirlash ishlari boshlab yuborildi. O'qishlarimiz tugashi bilan G'alvirsoydagi oromgohimizga jo'nab ketamiz. Yangi o'quv yilgacha uyimizni chiroyli qilib qo'yishadi. Bayram va

«BIR KUN OYIM KELADI»

Derazadan boqaman doim,

Ona o'tar bolasi bilan.

Kelarmikan mening ham oyim,

Bahor kelsa, lolasi bilan.

Jajji qalbim o'rtasa o'kinch,

Mehrga zor qaqshasa yurak.

Yolg'iz bo'lar shu orzu, ilinj-

«Onam bir kun kelmog'i kerak!»

Sho'x shabboda, to'xta, olib ket,

Qanotingga xatimni bog'lay.

Uch, uchaqol, uni quvib yet,

Umid bilan yo'lini poylay.

Aytgin kelsin, to'shay yo'liga,

Qalbdan uzib qizg'aldoqlarni.

Qo'llarimni tutib qo'liga,

Sayr etayin men chorbog'larni.

Yuragimda to'lganda alam,

O'ksib-o'ksib yig'layin unga.

Quvonchimdan jo'sh ursam har dam,

Sherik qilay onamni bunga.

«Qizim» deya suyganda onam,

Zulmat qalbim bo'lardi quyosh.

Bolalardek bir kuni men ham,

Qo'ysam deymen ko'kragingga bosh.

suhbatimizga qo'shildi G'iyosiddin ismli bolakay. - Chunki, onam tirik bo'laturib, undan mehr ko'rmadim. Otam o'lgandan keyin onam ikkinchi bor turmushga chiqdilar. O'gay otam hech qayerda ishlamasdi. Ro'zg'ordagi kamchilikdan gap ochilsa, o'gay otam nuqul: «O'g'lingni bolalar uyiga topshirsang bo'ladi-ku», der edi. Bir kuni onam meni amakivachcham bilan «aylanish»ga jo'natdilar. U esa meni to'g'ri shu yerga olib keldi. Oradan ko'p o'tmay, u telefon qilib, uyimiz yonib ketganini, onam bilan ukamning halok bo'lishganini aytdi. Men bu xabardan qattiq ezildim, o'ksib-o'ksib yig'ladim...

Bir kuni ko'chada mashinada onam bilan ukamni ko'rib qoldim. Avvaliga ko'zlarimga ishonmadim. O'zimga kelib, mashina ortidan yig'lab yugurdim. Oyim esa mendan yuzlarini ters burib oldilar. Keyin bolalar uyidan qochib, uyimizga bordim. U yonmagan ekan. Izlab topmasligim uchun uyni sotib, boshqa uyga ko'chib ketishgan ekan...

Uning mungli hikoyasini tinglayapman-u, ko'z oldimda nogironlar aravachasidagi bolasini ardoqlab yurgan ona gavdalandi. Nogiron bo'lsa-da, ONA undan tongani yo'q. To'rt muchasi sog'lom G'iyosiddinni esa «ona»si tan olgisi yo'q. Nazarimda, hayot toshqin daryodek. Uning bir qirg'og'ida ezgulik, ikkinchisida qabohat yashaydigandek. Ular tinmay kurashadi. Jaholat qanchalik kuchli bo'lmasin, ezgulik baribir undan ustun kelaveradi. Shuning uchun ham hayot davom etaveradi.

Men tarbiyalanuvchilari bilan yaqindan tanishgan Chirchiq shahridagi 14 - Mehribonlik uyida 72 nafar bola bor ekan. Shulardan 20 nafari yetim bo'lsa, qolganlarining ota-onalari hayot, ya'ni tirik yetimlar ekan. Ularning aksariyati biror g'amxo'r oilaga farzand bo'lishni, g'amxo'r ota, mehribon ona bag'rida voyaga yetishni orzulashadi. Ayrimlari esa «Onam bir kuni albatta keladi», deya ko'chaga nigoron boqishadi.

Men ularning orzulari ro'yobga chiqishiga ishonaman. Chunki oramizda sahovatli insonlar ko'pligini yaxshi bilaman.

Shahnoza RAVSHANOVA,
Toshkent viloyati, Chirchiq shahridagi
2 - ixtisoslashtirilgan maktabning
6 - «V» sinf o'quvchisi.



MEHRNI QO'MSAB...

*Dunyoga keltirib tashlab ketdingiz,
Mungli ko'zlarimga boqmasdan turib.
Murg'ak yuragimni g'ashlab ketdingiz,
Jajji bo'yginamni ko'rmasdan turib.*

*Oylarga termulib yig'layman hamon,
Yuragim urmoqda, biroq u ojiz.
Nelarni ko'rsatdi menga bu hayot,
Hasratim so'zladim shamolga bejiz.*

*Onajonlar, sizdan bir o'tinchim bor,
Bolangizni tashlab ketmangiz zinhor.
Gar so'zlarim sizga qilsa kor,
Rahmatlar aytardim takror va takror.*

Noila ZOKIROVA,
Poytaxtdagi 213 - maktab o'quvchisi.

ADASHGAN MAKTUB

«Salom oyijon, men Sizni tanimayman, hecham ko'rmaganman. Shunday bo'lsa-da, sizni juda yaxshi ko'raman, sog'inaman. Sizni ko'rmagan bo'lsam-da, lekin juda chiroyli ayol ekanligingizni yaxshi bilaman. Chunki meni ham tarbiyachilarimiz, chiroylisan, deya maqtashadi...»

Yana Siz juda aqllisiz. Chunki o'qituvchilarimiz meni «aqli qiz» deya boshqalarga ibrat qilishadi. Menga bu fazilatlar Sizdan o'tgan-ku axir, shunday emasmi? - Tong Yulduzi

Oyijon, Siz hozir qayerdasiz? Nega bir bora bo'lsa ham meni ko'rgan kelmasiz? Iltimos, bir maragina keling. Sizga aytar gaplarim juda ko'p. Sizga bag'ishlab yozgan she'rimni ham o'qib berardim...

Kecha o'rtog'im Lolaning onasi keldi. Ona-bola achomlashib, uzoq gaplashib o'tirishdi. Biram havasim keldiki. Qaniydi, Siz ham kelib, meni bag'ringizga bossangiz, yuzlarimdan o'psangiz edi...

Oyijon, men katta bo'lsam tikuvchi bo'lmoqchiman. Siz kelmasangiz ham, ulg'aygach o'zim Sizni topib olaman. Shunda sizga chiroyli ko'ylaklar tikib beraman. Xayr oyijon, sizni kutib qolaman...»

Bu xat mening qo'limga tasodifan tushib qoldi. Uni o'qib, yuragim ezilib ketdi. Qizcha bu maktubni ne-ne orzu-umidlar bilan yozgan, axir?! Manzili ko'rsatilmagach, u qanday qilib egasini topsin. Shoyad qizchani onasi uning maktubini gazeta orqali o'qib qolsa-yu, ko'ngli biroz yumshasa. Qanday yaxshi bo'lardi.

*Kentikni tuzatsa, izlari qolar,
Qalb yarasin tuzalmas nolasi qolar.
Yetim ko'nglin olmasa, uvoli tutar,
Mehr muruvvat qilsang, ko'ngillar to'lar.*

Qaniydi, shoimning ushbu misralari har birimiz uchun bir da'vat bo'lsa. Istardimki, dunyoda yetimlar bo'lmasin, munchoqdek qora ko'zlar yoshga to'lmasin. Yurtboshimizning mazkur yilimizni «Mehr va muruvvat yili» deb ataganlari bejiz emas. Shu qutlug' yilda ilohim barcha insonlar qalbi ezguliklarga to'lsin!

Malika RAHMONBEKOVA,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti
sovrindori.

Biz tasavvuf ta'limotining yorqin namoyandasi, Naqshbandiya tariqatining shuhrat qozongan murshidi Xoja Ubaydulloh - Xoja Axror Valiyning ibratli hayot yo'li va ijodini ko'zdan kechirganimizda ana shu dastur, maromnomaga suyanganda holda fikr-mulohaza bildirsak yanglishmaymiz. Zero, mustaqillikka erishganimizcha u zoti oliy haqida aytilgan, ko'rsatilgan manbalarning deyarli barchasida tarixiy haqiqatdan chekingan holda ma'lumotlar berildi.

U zoti ikromni «qonxo'rd», «johil», «qahrli», ilm-ma'rifatning dushmani va boshqa ko'plab salbiy sifat egasi tarzida talqin etildi. Agar ishonchli manbalarga nazar tashlasak, aytaylik, Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur va boshqa allomalar yozgan satrlarga ko'z yugurtirsak, mualliflar Xoja Axror nomini samimiyat bilan tilga oladilar. Hatto, o'zlarining ma'naviy pirlari-murshidlari sifatida hurmat-ehtirom qiladilar.

Shu o'rinda Xoja Axror Valiy tarjimai holi xususida to'xtalsak. Xoja Ubaydulloh 1404 yilning martida Toshkentda tavallud topib, 1490 yilning fevralida vafot

etgan. Uning otasi Xoja Mahmud shajara jihatidan Muhammad Nomiylar Bag'dodiyga ajdod bo'lsa, onasi Shayxontohurning o'g'li Xoja Dovudning qizi bo'lgan. Shayxontohurning otasi esa Bahovuddin Naqshband ehtiromiga sazovor bo'lgan shayxlardan Umar

taalluqli yer va mulkdan ushro'ndan bir miqdorda soliq olinardi. Boshqalarning yer va mulklaridan esa ko'plab boshqa soliqlar ham undirilardi. Shu tufayli ko'pchilik dehqonlar o'z yerlarini u kishining nomiga o'tkazib, o'zlari bemaol o'sha yerlarida ishlayverganlar. Shu tariqa ular ortiqcha soliqlardan

etishda tush ko'rish usulidan foydalangan. Zotan, kashfiyot va karomatlarining tushda ko'rib, ta'bir qilgani bois, unga valiylikni nisbat berib, Xoja Axrori Valiy deb nom berganlar. Shuningdek, hazratning yana bir sifati bo'lganki, u boshqalar manfaatini yo'lida fidoiylilik ko'rsatgan. Musulmonlar

Biz suv ichgan buloqlar

yo'qotmagan.

Shuningdek, Xoja Axror tasavvuf ahli va turli masalalarga oid fikrlarini qamrab olgan «Fiqrot ul-orifin» («Voridot»), ahloq-odob, insonning o'zini tanishi masalalarida so'z yurituvchi, otasi xohishi bilan yozilgan «Risoi volidiya» yoki «Muxtasar», mashhur shoir Abu Said Abulxayrning bir ruboiysi sharhiga bag'ishlangan «Risoi havriya», turli munosabatlar bilan zamondoshlariga yozilgan maktublar to'plami «Ruqaot» («Maktublar») singari asarlar ham yaratgani ma'lum.

Bir so'z bilan aytganda, «Ka'bai maqsud», tariqat «qutbi», «Turkistonning tabarruk avliyosi» va boshqa ko'plab mo'tabar nomlarda e'zozlangan Xoja Axror Valiy - XV asrning ikkinchi yarmidagi ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy hayotda ulkan mavqe egallagan hamda shu kunlarda ham xalqimizning qalb to'ridan mustahkam joy olgan salobatli siymo sifatida yashab kelmoqda.

Gulyuz BAHODIR qizi.

XOJA AXROR VALIY

Bog'istoniidir. Uning yoshlik yillari Toshkentda o'tgan. U o'sha zamon udumiga ko'ra ta'lim-tarbiya olgan.

Xoja Axror Valiy xalq tomonidan yuksak martabalar sohibi - oliy maqom, ilohiy sirlarning orifi va mazhari, davlat va din sharafiga kabi unvonlar egasi hamda fuqaro va akobirlar pushtipanohi sifatida tan olingan. Zero, Sulton Abu Said mirzo va uning o'g'li Sulton Ahmad mirzo hukmronligi davrida bu orifning mavqei ancha baland bo'lgan.

Shu bois Movarounnahr va Xurosonning turli joylarida Xoja Axrorga tegishli mol-mulk, yer hamda katta boyliklar vujudga kelgan. Bularning ayrim qismi dehqonlar tomonidan unga nazr qilingan. Chunki, Abu Said mirzoning farmoniga ko'ra, Xoja Axrorga

halos bo'lganlar.

Xoja Axror o'z daromadlarining katta qismini xalqqa solingan ortiqcha soliqlarni to'lashga, madrasa, masjid, xonaqoh va boshqa qurilishlar uchun sarflagan. Kunlardan birida u Umar Shayx mirzo Toshkent aholisiga solgan ikki yuz ellik ming dinor hajmdagi soliqning hammasini to'lab, yana unga qo'shimcha yetmish ming dinorni soliqchilarga topshirgan. Ayni paytda Sulton Ahmad mirzo xazinasiga esa o'n ming kumush tanga ajratgan. Bu ehsonlarning barchasi uni xalq orasida saxiy, javonmard, qo'li ochiq va pokiza inson sifatida ko'rsatib, Xojai Axror deb ulug'lanishiga olib kelgan. Uning sifat va odatlaridan yana biri shu bo'lganki, u voqea, hodisalarni tahlil qilib, xulosa chiqarishda va natijalarni bayon

ko'nglidagi og'irliklarni yengillashtirish, ulardan halos etish, ularga o'z og'irliklarini yuklamaslikni doimo uqtirgan, o'zi ham shunga amal qilgan. Bir faqirga najot berish va uning ko'ngliga xursandchilik bag'ishlash lozimligini alohida ta'kidlagan.

Ayni chog'da, Xoja Axror ijod bilan ham shug'ullangan. Uning ko'pgina yozgan va aytganlari hikmatli so'zlar darajasiga ko'tarilgan. Masalan, «...mening Sizlarga dunyoni ma'n etishim, dunyoni Sizlardan darig' tutish ma'nosida emas, balki Sizlarni dunyodan asramoq ma'nosidadir. Chunki Odam shunchalik ulug'vorligi bilan o'z vaqtini arzimmas narsalar uchun zo'ye qilmog'iga xayfim keladi», degan ibratli so'zlari hozirgi kunlarimizda ham o'zining tarbiyaviy ahamiyatini

Bahor kelib, har yonda obodonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari avj olgan palla edi. Shunday kunlarning birida Dilbar maktabdan shoshib keldi-yu, onasiga dedi:

-Oyijon, sinfdoshlarimning barchasini gulzori bor ekan. Endi men

parvarishlay ketdi. Gulzor kundan-kunga yashnab, hatto Dilbar e'tibor bermagan gulbeor ham oftob nurida chiroy ocha boshladi.

Bir kuni darsdan so'ng sinfdoshlari Dilbarning gulzorini ko'rgani kelib, hangu mang bo'lib qolishdi. Chunki ular bunday go'zal gulzorni endi ko'rib turishgandi-

BEOZOR GULBEOR

ham turli gullar ekib, o'z gulzorimni yarataman.

-Ha, mayli qizim. Avval choyingni ichib olgin,-dedi onasi quvonib.

Dilbar apil-tapil choyini ichdi-da, yerni yumshatib, suv quyib, bir-biridan chiroyli rayhonu gulsafsar, atirgulu chuchmoma kabi gullarni ekib, parvarish qila boshladi. Buni ko'rgan onasi:

-Qizim, mana bu gulbeorni ham ekib qo'yaqol,-deb Dilbarga gulni uzatdi. Shunda Dilbar norozi bo'lib:

-Oyijon, axir bu gul juda ko'rimsizku. Shu gulni ekib vaqtimni bekor ketkazamanmi?-deb javob berdi.

-Gulbeorga ortiqcha e'tibor shart emas,-tushuntirdi onasi.

Dilbar onasini ranjitishni istamay, noiloj gulni olib bog'ning bir burchagiga ekib qo'ydi va boshqa gullarini

da. Gullarning ajib ifori butun hovliga taralib, barchaning qalbini quvnatdi. Shu kechasi Dilbar uxlayolmay bog'ni aylangani chiqdi va to'satdan gullarning qizg'in suhbatini eshitib qoldi:

-Aytinlar-chi, qay birimiz eng go'zal hisoblanamiz?-dedi kibar bilan Gulsafsar.

-Albatta men-da,-dedi Atirgul maqtanib.-Chunki mening tengi yo'q muattar isim va bebaho go'zalligim barchani maftun etdi.

-Men turganda senga yo'l bo'lsin,-dedi Chuchmoma bo'sh kelmay.-Bog'ni yashnatib turgan eng go'zal gul ham o'zimman.

-Men-chi, men. O'zimning tengi yo'q muattar iforim bilan barchani lol qoldiraman,-dedi gapga qo'shilib Rayhon.

Gullar bir-birlariga gal bermay bahslasha ketdilar. Faqat birgina Gulbeor kamtarlik qilib o'zini maqtamay, oqilona

javob aytdi:

-Bekorga tortishyapsizlar. Chunki barchamizni insonlar birdek ko'radilar. Go'zalligimiz va ajoyib iforimizni doimo qadrlaydilar.

Shunda Dilbar o'zining qilgan eng katta xatosini tushunibdi. Chunki u e'tibor bermagan o'sha Gulbeor eng go'zal gul bo'lib chiqdi.

Dilbar gullarga qarata shunday dedi:

-Sizlar ming go'zal bo'lmang, sizlarda ichki go'zallik yo'q ekan. Men shuni aniq bilamanki, oralarigizda eng go'zali va kamtari bu Gulbeordir.

Shunda barcha gullar qilgan manmanliklaridan izza bo'lib qoldilar.

Dilbar xatosini to'g'rilab, Gulbeorni parvarishlay boshlabdi. Bu mehr va e'tibordan quvongan Gulbeor esa kundan-kunga yashnab, ko'rkiga ko'rk qo'shila boshlabdi.

Qissadan hissa: insonning tashqi go'zalligiga emas, balki uning ichki go'zalligi hamda kamtarligiga qarab baho berish kerak.

IZINGIZDAN BORAMAN

(Ustoz Muhabbat Qayumovaga)

Matmusaga tandirni kiygizibsiz xo'b ustoz,
Oqibat ne bo'lishin uqtirmabsiz ko'p ustoz.
Dangasa deb koyiysiz, g'ujur parda ortida,
Nigohingiz qadaysiz sizga hurmat ortida.

Shogirdlar karvonini misli durday tizingiz,
Sarboni kim bo'lishin qalbingiz-la sezdingiz.
Niyatingiz ijobat, so'zlaringiz dilimda,
Boraman izingizdan so'zlaringiz tilimda.

Mashhura ISKANDAROVA,
Oqdaryo tumanidagi 10-o'rta maktabning
Til va adabiyot fani o'qituvchisi.



Saida MASHARAPOVA,

Toshkent viloyati, Toshkent tumanidagi 4-maktabning 9-«A» sinf o'quvchisi.

XONQIZI

Bizning to'garak

(Ertak)

Qadimda bir xon bo'lib, uning husnda tengi yo'q Gulshan ismli yolg'iz qizi bo'lgan ekan. Qizning go'zalligi, oqilaligi ta'rifini eshitgan o'zga bir yurtning shahzodasi uni sevib qolibdi va uylanish niyatida sovchilar jo'natibdi. Qiz ham rozi bo'libdi. Ammo shahzodaning onasi jodugar ekan. U tish-tirnog'i bilan o'g'lining Gulshanga uylanishiga qarshilik qila boshlabdi. Payt poylab, Gulshanni sehlrab qo'yibdi. Jodu ta'sirida go'zal qiz bir zumda qip-qizil rangli qo'ng'izga aylanib qolibdi. Uning dilidagi armonlari qop-qora dog'larga aylanib, ustiga qalqib chiqibdi...

Shu-shu bu qo'ng'izni odamlar xonqizi deb atashar ekan.

Iroda MUSURMONOVA,
Jizzax viloyati, Zafarobod tumanidagi
Amir Temur nomli maktabning
7 - «A» sinf o'quvchisi.



VAQT

Hayotning daryosi oqar betinim,
Har bir daqiqa oltinga tengdir.
Shu vaqtdan unumli foydalaning sen,
O'qi, o'rgan, izlan - imkonlar kengdir.

VATANGA MEHR

Tomirda qonimiz jo'sh urib oqar,
Vatanga mehr-la yo'g'rilgandir u.
Ko'z qorachig'idek asraymiz uni,
Kelajakdan umidvor, tilaklar ezgu.



Nodira ALIBOYEVA,
Toshkent viloyati, Bo'ka tumanidagi
53 - maktabning 5 - «B» sinf o'quvchisi.

«BILAG'ON» BOBUR

Boshlang'ich sinflarga o'qituvchi bo'lib yangi ishga kelgan kunlarim edi. Uchinchi sinfda rus tili darsi borardi.


-Venik - supurgi, vedro - paqir, topor - bolta, -deya o'rgatdim ularga. So'ngra oxirgi partada xayolga cho'mib o'tirgan Boburdan so'radim:

-Xo'sh Boburjon, ayt-chi, «vedro» nima degani ekan?

-Bumi, yer tagida yuradigan poyezd, ustoz. Men uni kinolarda ko'rganman...

Menimcha, u «vedro»

so'zini «metro» deb eshitgan bo'lsa kerak.



DO'KONDAN OLINADI

Kichkintoylarga shakarqamish, qand lavlagi kabi o'simliklarning o'stirilishi, qayta ishlanishi, ulardan qanday qilib shakar olinishi haqida atroflicha tushuncha berdim. Derazaga termulib o'tirgan o'yinqaroq Aliboyning xayoli koptok surayotgan bolalarda edi, chamasi.

-Qani Aliboy, ayt-chi, qand qayerdan olinar ekan?-deb so'radim.

-Dilo opaning do'konidan, ustoz. Ha, ishonavering, oyim har gal shakarni o'sha yerdan sotib oladilar...



SURATINGIZNI BERING

-Ustoz, menga bitta rasmingizni bering, papkamning surat solinadigan yeriga joylab qo'yaman,-deb qoldi bir o'quvchim.

-Yo'g'-e, u yerga o'zingning suratini joylashtir, kimning papkasi ekanligi bilinib turadi,- dedim men.

-Bu papkaning meniki ekanligini sinfda ham, uyda ham hamma biladi. Sizing rasmingiz tursa, sog'inganimda ko'rib turaman. Yana u menga darsimni qilishim lozimligini eslatib turadi, bera qoling...

Ollobergan RO'ZIMOV,

Xorazm viloyati, Xonqa tumanidagi 25 - maktabning rus tili o'qituvchisi.

ORZU

(Qatra)

Orzu... Sen bahorimning gulg'unchasi, hayot atalmish ertagimning sehrgari, ko'nglimning yorqin ko'zgusi, ertamning o'chmas umidisan. Sening pok va beg'uborligingni Layli va Majnunning sevgisiga qiyoslayman.

Orzu... Dilimdagi ezgu niyatlarim yulduzi. Sen tunlarimning to'lin oyi, kunduzimning quyoshidirsan. Sen tufayli hayotga ishonchim ortib, xayolot osmonimda ertangi kunga umid yulduzlari porlaydi.


Orzu... Sen qalbimning tubsiz ummonisan. Bu ummon ichra mening

barcha orzularim suzib chiqishiga va ijobat bo'lishiga iymonim komil.



Aziza BERDIBOYEVA,
Alisher Navoiy nomli Respublika
Nafis san'at litseyining
9 - «A» sinf o'quvchisi.

ARALASH RAQAMLAR



Kataklarni huddi Sunday sonlar, asosida to'ldiring.

Tuzuvchi: Zebiniso HUSHVAQTOVA,
Toshkent shahar, Sirg'ali tumanidagi
305-maktabning 8 - «A» sinf o'quvchisi.

O'zbekiston bolalari va o'smirlarining gazetasi

BOSH MUHARRIR:
Umida
ABDUAZIMOVA

TAHRIR HAY'ATI:
Risboy JO'RAYEV,
Mirakmal MIROLIMOV,
Botir UBAYDULLAYEV,
Jabbor RAZZOQOV,
Feruz JALILOVA
(Bosh muharrir o'rinbosari),
Abdusaid KO'CHIMOV,
O'ktam OHUNOV,
Ergashvoy SARIQOV.

Gazeta O'zbekiston
Matbuot va axborot
agentligida
№ 022 raqam bilan
2003 yil 11 dekabrda
ro'yxatdan o'tgan.

Noshir
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi.

Gazeta
«Ijod dunyosi»
nashriyot uyi
kompyuter bo'limida
terib sahifalandi.
Gazeta haftaning
dushanba kuni chiqadi.
Hajmi A-3, 2 bosma
taboq.

Toshkent matbaa
kombinatida chop etildi.

Adadi - 37119
Buyurtma № J 000159

Manzilimiz:
700129,
Toshkent shahri,
Navoiy ko'chasi,
30-uy.
Obuna indeksi: 198

Bizning elektron
pochtamiz:
ijod@uzpak.uz

Tel: 144-63-08
144-62-34
Tel./ faks:
(99871) 144-37-24

ZARKENTIM

Tog'larning qo'ynidadir,
Mening so'lim qishlog'im.
Mehnatdan topdi qadr,
Mening so'lim qishlog'im.

Shudgor kechib, suv surib,
Yozmi, kuzmi, qahraton.
Rais bobomiz bo'ldi,
Mana bugun qahramon.

Tuproq'ing zar Zarkentim,
Toshing gavhar Zarkentim.
Seni doim qo'llasin,
Avliyolar Zarkentim.

Umida EGAMOVA,
Toshkent qishloq xo'jalik
kasb-hunar kollejining
2 - bosqich talabasi.